

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

HAMIDOV NURALI SHODIYOR O‘G‘LI

“BOBURNOMA”DAGI SHE’RIYAT POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Hamidov Nurali Shodiyor o'g'li “Boburnoma”dagi she’riyat poetikasi	3
Хамидов Нурали Шодиёр огли Поэтика стихотворений в «Бабурнаме»	23
Hamidov Nurali Shodiyor ogli Poetics of verses in Baburnoma	45
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

HAMIDOV NURALI SHODIYOR O‘G‘LI

“BOBURNOMA”DAGI SHE’RIYAT POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.2.PhD/Fil2077 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muhiddinov Muslihiddin Qutbiddinovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qobilov Usmon Uralovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Husayn Baydemir
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "21" may soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko'chasi, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, (8366) 239-18-92; faks: (0366) 99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (36 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko'chasi, 15-uy. Tel.: (0366) 66 239-11-40, (0366) 66 239-18-92.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "7" may kuni tarqatildi.
(2025-yil "7" may dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.A.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

N.M.Muxitdinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida adabiy-tarixiy asarlardagi she'riy parchalar namunalari hamda ularning davr voqeligini bayon etishdagi muhim xususiyatlari, jumladan badiiy san'atlarni qo'llash mahoratiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, mumtoz adabiyot zahirida shakllangan nasriy asarlardagi muallif uslubi, voqea bayonida xulosa sifatida she'r yoki she'riy parchalarni tanlashi, madaniy hayot, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritishda muallif tomonidan qo'llangan she'r namunalarining badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi vazifalardan biri hisoblanmoqda. Shu bois tarixiy-memuar asarlarda ijodkor ruhiyati, makon va zamon birligi, timsol yaratish san'ati, ijodkor shaxsi, uning hasbi holi, mavqeyini ko'rsatishda muallifning tanqidiy munosabati, ularni ifoda etishdagi o'ziga xoslik va xolislik tamoyillarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy-voqeyiy asarlardagi muayyan adabiy muhit, ijodkor shaxslar tasviri, adabiy janrlar taraqqiyoti, hukmdorlar, shoirlar va tarixiy shaxslar, shuningdek, muayyan tarixiy voqea-hodisalarni tasvirlashda she'r va she'riy parchalar orqali muallif mahoratini ochib berish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixiy asarlarni o'rganish, ularni makon va zamon jihatidan to'g'ri baholash, keyingi avlodga yetkazish, asarning badiiyatini ilmiy jihatdan o'rganish asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Ularda tasvirlangan turli tabaqa va toifaga mansub shaxslar ruhiyati, ijodkorlar badiiy olami, ijtimoiy muhit tasviri, uslub masalasi, ulardagi she'riy parchalar badiiyati, muallif shaxsiyati, janrlar takomillashuvi kabi qator masalalarni ilmiy yoritish zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda adabiyot va ma'naviyatga katta e'tibor qaratilmoqda, o'zbek adabiyotining mumtoz namunalarini yangicha ruhda yoritish asosiy maqsadlardan biriga aylanmoqda. "Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda"¹. Shu bois "Boburnoma"da keltirilgan adabiy muhit, adabiy-tanqidiy qarashlar, shuningdek, hukmdor va ijodkor shaxslarni tasvirlashda asarda she'riy parchalarni qo'llash yuzasidan muallif mahoratini o'rganish, ijodkor individual uslubining yuzaga kelishida she'rlarning ahamiyati, poetik mazmundagi novatorlik, muallif badiiy "men"ining shakllanishi, she'riy parchalardagi badiiy san'atlar hamda ularning asar mazmun-mohiyatiga ko'rsatgan ta'siri borasidagi izlanishlarni yoritib berish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 2017 йил 25 май.

2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 13-sentabrda PQ-3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusidagi ma'ruzasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va adabiy-estetik qarashlari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumaladan, bu borada salmoqli ilmiy izlanishlar olib borgan J.Leyden, U.Erskin, L.U.King, R.M.Kaldekot, F.G.Talbot, M.Malfu, S.Leyn-Puul, E.Holden, M.Elfinston, G.M.Elliot, A.Denison Ross, V.X.Morleand, A.S.Beverij, A.de Long-Per, A.J.Klaport, J.Dranjete, Pave de Kurteyl, Jan-Pol Ru, Lui Bazen, Jan-Lui Bake Grammon, I.V.Stebleva, A.N.Samoylovich, Ahmad Ali Ko'hzod, Abdulhay Habibiy, Shafiqa Yorqin, Gulchin Maoniy, Zokir Husayn, Nur ul-Hasan, Muni La'l, M.Haydar, S.P.Sharma, H.Lemb, U.Tekston, Temur Xamit, Bayuzak Kojabek o'g'li, Rashit Rahmati Arat, Bilol Yujel, Eyji Mano' kabi xorijlik olimlarning xizmatlari beqiyos².

O'zbek adabiyotshunosligida "Boburnoma" asarining o'rganilishiga XX asrning 20-yillarida alohida e'tibor qaratila boshlandi. Asarni o'rganish, tadqiq etish, uning badiiy xususiyatlari, tarixiylikni tasvirlashda muallif uslubining o'ziga xosliklari kabi masalalar borasida maxsus ilmiy izlanishlarda A.Fitrat,

²Bu haqda qarang: Leyden John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London. 1826. – 432 p; Бобур З.М. Бобурнома. Инглизчадан А.Кайзер таржимаси. – Лейпциг, 1828; Паве Де Куртейл. Бобурнинг эсдаликлари. – Париж, 1871; Boburnoma. Hindiston imperatori Zahiriddin Muhammad Boburning o'z qo'li bilan chig'atoy va turkiy tilda yozgan xotiralari. J.Leyden va V.Erskinlar tarjima qilgan. Dublin universitetida arab va fors tillari fakultetining professori hind tarixi mutaxassisi janob Dyukas Uayt King sharhlagan va to'ldirgan. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London, 1921. – 880 p; Калдекот Р.М. Бобур ҳаёти (Ҳиндистон императори). Қисқартирилган таржима. (инглиз тилида). – Лондон, 1845; Талбот Ф.Ж. Ҳиндистон императори Бобурнинг эсдаликлари. Қисқартирилган таржима. (инглиз тилида). – Лондон, 1879; Бобуршоҳ Заҳириддин Муҳаммад. Вақойиъ. 1-нашр. – Ал-Қоҳира, тарж. Магда Малфу. Дорул офоқ ул- арабийя. 2013. – 747 б; The Baburnoma. Memories of Babur. Prince and Emperor. Translated, edited and annotated by Wheller M. Thackston. – Нью Йорк, Оксфорд, 1996. – 432 p; Dale, S.F. The Garden of the Eight Paradises: Bobur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483-1530). 2004; ISBN – 13:978 – 9004137073, ISBN – 10: 9004137076; Zahiruddin Muxammad Babur. Vekayi. Babur'in hatiroti. Cild I-II. – Ankara, 1944-1946; Mirza Nasriddin Ko'ragoniy. Tarjimai tuzuki Baburiy. – Karaci, 1962; Rashid Axtar Nadviy. Tarjimai tuzuki Boburiy. – Lahur, 1965; Бобурнома. (хиндий тилда). – Дехли, 1974; Zahir Ad-din Muhammad Babur. Babur-nama.(Vaqayi). Critical edition based on four chagatay text woth introduction and notes by Eyji Mano. Kyoto, Syokado, Prinited by Nakanishi Prining Co., LTD Kyoto. – Japan, 1995-1998.

M.Shayxzoda, P.Shamsiyev, S.Mirzayev, S.Azimjonova, V.Zohidov, H.Yoqubov, S.Jamolov. A.Qayumov, B.Valixo‘jayev³ kabi adabiyotshunoslarning xizmatlari katta bo‘ldi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligida Bobur ijodiy merosini o‘rganishga keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Bobur va uning ilmiy-ijodiy merosini yangi, sof milliylik tamoyili asosida tadqiq etishning yangi ufqlari yuzaga keldi. Bu davrda A.Abdug‘afurov, G.Salomov, N.Komilov, S.Hasanov, N.Otajonov, H.Qudratullayev, S.Jalilov, R.Vohidov, Y.Is‘hoqov, I.Haqqulov, H.Boltaboyev, X.Sultonov, V.Rahmonov, Sh.Rustamxo‘jayev, A.Ibrohimov, N.Nizomiddinov, E.Ochilov, Z.Xolmanova, D.Hoshimova, R.Karimov, M.Abdullayeva, I.Sulaymonov, E.Hazratqulova⁴ kabi adabiyotshunos olimlarning

³ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Тошкент: Ўздавнашр, 1928. – Б. 43; Мақсуд Шайхзода. Асарлар: 6 жилдлик, 5-жилд. Заҳириддин Бобир. Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1973. – Б. 327; Бобир. Асарлар / Нашрга тайёрловчилар П.Шамсиев, С.Мирзаев. Уч жилдлик. – Тошкент: Фан, 1965-1966; Бобир. «Бобирнома» / Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. – Тошкент, 1960; Бобир. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар С.Азимжонова, А.Қаюмов. – Тошкент, 1958; Азимджанова С. Индийский диван Бабура. – Тошкент: Фан, 1966. – С. 76; Ферганский удел Омар-Шейха и Бабура (в XV и начале XVI вв). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1949; В. Зоҳидов. Бобирнинг фаолияти ва илмий-адабий мероси ҳақида // Бобир. Бобирнома. – Тошкент, 1960; Ҳ.Ёқубов. Бобир. – Тошкент, 1941; Адабий мақолалар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б. 366; Жамолов С. О художественных особенностях «Бабура-наме». Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1961; А.Қаюмов. Асарлар. 5-жилд. Тошкент, «Мумтоз сўз», 2009. – Б. 303; Б.Валихўжаев. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. // Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 3-жилд. Тошкент, 1978. – Б. 380; Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг адабий танқидий қарашлари. Тошкент, 1993; Мумтоз сиймолар. Сайланма: 2 томлик. (2-том Заҳириддин Муҳаммад Бобурга бағишланган). Тошкент.: Халқ мероси нашриёти, 2002; «Бобурнома» улкан асар намунаси. Ўзбек насри тарихи. Тошкент, 1982.

⁴Бобур. Девон / Нашрга тайёрловчи А.Абдуғафуров. – Тошкент: Фан, 1994; Ғайбуллоҳ ас-Салом, Отажон Н. Жаҳонғашта Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1996; Н.Отажонов. Бадиий таржима ва илмий шарҳ. Т.: «Билими» жамияти, 1978. – 26; Бобур. Мубаййин / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2001. – Б. 182; Ҳасанов С. Бобурнинг Рисолайи аруз асари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 274; Бобир. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 241; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент. Шарқ. 2002; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Т.: «O‘zbekiston», 2011. – 84 Б; Н.Отажонов. «Бобурнома» жаҳон адабий жараёнида: қиёсий-типологияк таҳлил. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1994; Ҳ.Қудратуллаев. Бобурнинг адабий-эстетик олами. – Тошкент, «Маънавият», 2018. – Б. 271; Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2011. – Б. 431; Бобур армони. – Тошкент: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2009. – Б. 383; «Бобурнома»нинг тарихий-адабий ва услубий таҳлили (Навоий, Бобур, Хондамир ва Восифий насрининг қиёсий таҳлили). Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998; Бобурнинг адабий-эстетик қарашлари. – Тошкент: Фан, 1983; С.Жалилов. Бобир ва Юлий Цезар: (Қиёсий ҳаётнома). Т.: Янги аср авлоди, 2001; Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Адабий ўйлар. Тошкент: «Маънавият», 1999; Ё. Исҳоқов. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т.: Абдулла Кодирий номидаги ХМН, 2002; Заҳириддин Муҳаммад Бабури библиография. Тузувчи-муаллиф Ш.Ш.Рустамхўжаев. – Москва: Издательство восточной литературы, 2016. – Б. 1180; А.Иброҳимов. Бобурийлар мероси. – Т.: Фан, 1998; Ҳ. Болтабоев. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: Адолат, 2004. – Б. 138; Хайридин Султонов. Бобурийнома. – Тошкент, «Маънавият», 2019. – Б. 463; Раҳмонов В. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига мослаштирилган табдил; Шох, адиб ва шоир. З.М.Бобур. «Бобурнома» китобига муқаддима. Тошкент, «Ўқитувчи», 2008. – 287 Б; Низомиддинов Н. Қадимги Ҳиндистон тарихи, диний этиқоди ва маданияти. Т.: Фан ва технология, 2014. – Б. 461; Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. Тошкент.: Fan va texnologiya, 2012; Очилов Э. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Т.: «O‘zbekiston», 2013. – 134 Б; Бобур. Рисола. Т.: Абу матбуот консалт, 2011. – 32 Б; З. Холманова. «Бобурнома» лексикаси тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2009; Д.Хошимова. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. филол.фан.док. ... дисс. – Тошкент, 2018; Каримов Р. «Бобурнома»даги шеърлар хорижий тилдаги таржималарининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003; М.Абдуллаева. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий-типологияк таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2004; Сулаймонов И. «Бобурнома»да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадиий тасвири. Филол.фан. док. ... дисс. – Самарқанд, 2020; Ҳазраткулова Э. Адабий-тарихий асарларда бадиий ижод масалалари («Бобурнома» ва «Тарихи Рашидий» асосида). Филол. фанл. бўйича фалс. док (PhD) дисс. –

tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta'sir masalalari" mavzusidagi ilmiy izlanishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zahiriddin Muhammad Boburning tarixiy-badiiy asari "Boburnoma"dan o'rin olgan she'riy namunalar badiiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Boburnoma"dagi muallifga tegishli she'rlarning poetik xususiyatlari, adabiy muhit ifodasi va muallifning tasvirlash uslubi, asar orqali tarixiy-memuar asarda lirik kechinmaning hayotiy asosini o'rganishga doir ilmiy manbalar, talqinlarning ishonchliligi va asoslanganligini dalillash hamda ularni o'zaro qiyoslash orqali yangi ilmiy-nazariy xulosalarga kelish;

"Boburnoma"da iqtibos keltirilgan she'riy parchalarning g'oyaviy-badiiy vazifalari, asar kompozitsiyasida liro-epik asos uyg'unligi tahlili, bu haqda bildirilgan fikr va mulohazalarni tizimga solish va yangi ilmiy konsepsiyalarga mos ravishda tadqiq, talqin etishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash;

asardagi lirik she'rlarning mavzu va g'oyaviy ko'lami, asarda qo'llangan she'riy parchalardagi folklorizm an'analari bo'yicha tahlil va talqinlarda adabiyotshunos olimlarning ilmiy-estetik qarashlari darajasini ilmiy jihatdan asoslash;

asarda lirik kechinma tabiati va obrazlilik, poetik obraz va timsollar talqini, badiiy tasvir vositalari va muallif mahorati haqidagi ilmiy asarlar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda qo'llanilgan metod va yondashuvlar asosida yangi nazariy qarashlarning shakllanish jarayonini yoritib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini mavzu doirasida hozirgacha yaratilgan ilmiy-badiiy asarlar va materiallarda "Boburnoma"dagi she'riyat poetikasining badiiy talqini yo'nalishlarini tekshirish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, tavsifiy, qiyosiy-tipologik, biografik va germeneytik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Boburnoma"dagi she'rlarning *xokisorlik* va *kibr*, *saxiylik* va *xasislik*, *qanoat*, *vatan sog'inchi*, *xiyonat* kabi g'oyaviy jihatlari ochib berilib, lirik kechinmadagi Fon hukmdori, Vays Shayx, Vays Log'ariy, Tohir do'ldoy kabi tarixiy shaxslar bilan bog'liq hayotiy asoslari dalillangan;

asardagi voqea-hodisalar bayonida Samarqand, Hirot kabi adabiy muhitda yashab ijod qilgan Abdurahmon Jomiy, Shohg'arib, Muhammad Solih, Suxayliy, Sulton Ahmad mirzo kabi tarixiy shaxslarning portreti tasvirlanib, ularning ijodi

bo'yicha zohir va botin ulumida, kalomi marg'ub, yomon aytmaydur, bisyor sust va furudtur singari ta'riflar berilganligi asoslangan;

“Boburnoma”dagi she'rlar voqealar bayonida xulosa sifatida keltirilishi, ularda folklorizmning ustuvorligi, mazmunni yorqinlashtirishi, ifodaviy qobig'i shaklan maqolga tenglashtirilganligi aniqlangan;

asarda keltirilgan she'riy parchalar mualliflarining tanosib, tazod, mubolag'a kabi badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi so'z qo'llash, qofiya tanlash, hasbi hol she'rlarda lirik qahramonning ayni payt ruhiy holatini ifodalashi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Asarda keltirilgan she'riy parchalar poetikasiga doir ilmiy xulosalar, ularning hayotiy asosi va asarda tutgan o'rniga oid tahliliy mulohazalar, dissertatsiyaga qo'yilgan masalalar tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashtirilgan fikrlar hozirgi o'zbek adabiyotshunosligi uchun katta ahamiyatga ega ilmiy ma'lumotlar vazifasini o'tashi, boburshunoslikka oid tadqiqotlar yaratishda o'quv qo'llanmalar va darsliklar tuzishda manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltirilgan lirik she'rlar va ularning poetikasi, muallif uslubining o'ziga xos xususiyatlari, ijodkor shaxsi, mumtoz adabiy an'analarning davomiyligini ko'rsatishda muhim manba ekanligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, amalga oshirilgan tahlillar va chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tarixiy, germeneytik usullar vositasida asoslanganligi, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqola va tezislarda hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosalardan she'riy parchalarning poetik xususiyatlari, muallifning adabiy-tanqidiy qarashlari, adabiy muhit tasviri masalasi, adabiy aloqa, adabiy ta'sir haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish hamda bir tizimga solishda, shuningdek, ayni yo'nalishda yangi tadqiqotlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi xulosalardan “O'zbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyot nazariyasi”, “O'zbek adabiy tanqidi tarixi”, “Adabiy muhit va poetika muammolari” fanlarini va ixtisoslashgan maktablarda maxsus kurslarni o'qitishda foydalanish hamda oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanmalar, majmualar, adabiy aloqa va adabiy ta'sirga oid lug'atlar yaratish, ularni takomillashtirishda foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy boburshunoslik sohasida “Boburnoma”dagi she'riyat poetikasi talqinini tadqiq etish hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish asosida:

“Boburnoma”dagi she'rlar voqealar bayonida xulosa sifatida keltirilishi, ularda folklorizmning ustuvorligi, mazmunni yorqinlashtirishi, ifodaviy qobig'i

shaklan maqolga tenglashtirilganligi aniqlangan ilmiy natijalardan FA-F-1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” (2017-2020) mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 22-dekabrda 505/1-son ma‘lumotnomasi). Dissertatsiya natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalarning, boburshunoslikka doir olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

“Boburnoma”dagi she‘rlarning *xokisorlik va kibr, saxiylik va xasislik, qanoat, vatan sog‘inchi, xiyonat* kabi g‘oyaviy jihatlari ochib berilib, lirik kechinmadagi Fon hukmdori, Vays Shayx, Vays Log‘ariy, Tohir do‘ldoy kabi tarixiy shaxslar bilan bog‘liq hayotiy asoslari dalillangan. (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 14-sentabrda 07-07 – 175-sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiya mavzusidagi xulosalar va takliflardan Bobur ijodiy merosini chuqur tadqiq etish hamda tasavvuf ta‘limotining badiiy timsollarini o‘rganish imkonini bergan;

asardagi voqea-hodisalar bayonida Samarqand, Hirot kabi adabiy muhitda yashab ijod qilgan Abdurahmon Jomiy, Shohg‘arib, Muhammad Solih, Suxayliy, Sulton Ahmad mirzo kabi tarixiy shaxslarning portreti tasvirlanib, ularning ijodi bo‘yicha *zohir va botin ulumida, kalomi marg‘ub, yomon aytmaydur, bisyor sust va furudtur* singari ta‘riflar berilganligi asoslangan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma‘rifat” telekanalining 2023-yil 19-sentabrda 01-02-01/191-sonli dalolatnomasi). Natijada “Boburnoma” asari hamda undagi she‘riy parchalar poetikasini ilmiy jihatdan o‘rganish zaruriyati bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri ekanligi tadqiqot natijasida tasdiqlangan;

asarda keltirilgan she‘riy parchalar mualliflarining tanosib, tazod, mubolag‘a kabi badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi so‘z qo‘llash, qofiya tanlash, hasbi hol she‘rlarda lirik qahramonning ayni payt ruhiy holatini ifodalashi ochib berilganligi yuzasidan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyati bo‘limi to‘garaklari faoliyatida adabiy suhbatlar o‘tkazilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyati bo‘limining 2023-yil 17-sentabrda 01-03-13/835-son ma‘lumotnomasi). Natijada, asardagi lirik she‘rlar badiiyati masalasi, xususan, asardan o‘rin olgan she‘rlardagi obraz va timsollar, badiiy tasvir vositalari va muallif mahorati, Boburning nosir va adabiyotshunos sifatida, shuningdek, shoirlik iste‘dodi talqini tadqiqida ochilgan ilmiy xulosalarni keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika konferensiyalarida aprobatyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 ta mahalliy, 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“Boburnoma”dagi muallifga tegishli she'rlarning poetik xususiyatlari** deb nomlanib, **“Boburnoma”da adabiy muhit ifodasi va muallifning tasvirlash uslubi** nomli birinchi faslida asardagi adabiy muhit, uning o'ziga xos xususiyatlari, ijod va ijodkorlar, adabiyotshunoslik masalalari o'rganilgan. Ma'lumki, XV-XVI asrlarda Movarounnahrdagi adabiy jarayon shu davrga qadar mavjud bo'lgan ilmiy-adabiy an'analarni uzluksiz tarzda davom ettirish, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi voqealar va ular ortidan yuz bergan o'zgarishlar, adabiy-estetik qarashlardagi ma'lum rang-baranglik o'ziga xos xususiyat va tamoyillarni ham ifoda etdi. Mazkur davrdagi adabiy jarayon shu tariqa shakllanib, rivojlanib bordi. Adabiy muhitning vujudga kelishi, albatta, yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. “Boburnoma” asarida muallif tarixiy shaxslar, hukmdorlar haqida ma'lumot berar ekan, bevosita mazkur saroydagi adabiy muhitga ham to'xtalib o'tadi va o'z shaxsiy munosabatini bayon qiladi. Jumladan, otasi Umarshayx mirzo haqida shunday yozadi: “Umarshayx mirzo... Ravon savodi bor edi. “Xamsatayn” va masnaniy kitoblarni va tarixlarni o'qub edi. Aksar “Shohnoma” o'qur edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rg'a parvo qilmas edi⁵”. Ko'rinadiki, Umarshayx mirzoning san'at, xususan, adabiyot shaydosi bo'lganligi sababli “Xamsatayn”, qator masnaniy va tarixiy kitoblarni, ko'pincha, “Shohnoma” asarini o'qib turganligi, shoirlik qobiliyatiga ega bo'lsa ham, o'zi she'r yozishga hafsala qilmaganligi aytilmoqda. Asarda Hirot adabiy muhiti haqida muhim ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Bobur mazkur adabiy muhitning Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy kabi vakillari haqida batafsil to'xtaladi. U Sulton Husayn mirzo saroyidagi turli toifaga mansub kishilar ta'rifini keltirar ekan, ular orasida ilm-fan egalari va shoirlarga alohida to'xtaladi. Kuzatishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, asarda hech qaysi hukmdor va uning saroy a'yonlari Sulton Husayn Boyqaro va Hirot saroy muhitichalik ma'lumotlarga boy, qiziqarli va batafsil tasvirlanmagan. Saroy amaldorlari, fuzalosi va shuarosi tavsifida ayrim shaxslarga nisbatan muallifning cheksiz hurmati sezilib turadi.

⁵ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, “Шарк” НМАК, 2002. – Б. 64. (Bundan keyingi iqtiboslar “Boburnoma”ning mana shu nashridan olinganligi sabab ulardan keyin asar nomining birinchi harfi hamda sahifa raqamini [B., 64] tarzida ko'rsatish bilan cheklanamiz).

Boburning tasvirlash mahoratidagi o'ziga xosliklardan biri sifatida shuni alohida qayd etish lozimki, u o'z asarining yaratilishi va undan ko'zlangan maqsad haqida bir muncha keyin, aniqrog'i, asarning "To'qqiz yuz o'n ikkinchi (1506-1507) yil voqealari" bobida, ya'ni asar yozila boshlagan sana (hijriy 899-yil)dan 13 yil o'tgandan keyingina bu haqda yozadi: "Bu bitilganlardin g'araz shikoyat emas, rost hikoyattur kim, bitibturmen. Bu mastur bo'lg'onlardin maqsud o'zning ta'rifi emas, bayoni voqi'i bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqiini tahrir etilgay". [B., 151]

Tadqiqotchi E.Hazratqulova asarning dastlabki jumlasidanoq, roviyning asosiy hikoyasi muallifning o'ziga taalluqli voqea bilan bog'langanligiga tayanib, Boburning tutgan bu yo'li matn so'ngigacha davom etib, asar markazidagi bosh obraz o'zi bo'lib qolaverishini ta'kidlaydi .

Bizningcha, muallif asarda "Bu mastur bo'lg'onlardin maqsud o'zning ta'rifi emas, bayoni voqii edi" deb ta'kidlab o'tganidek, faqat o'ziga taalluqli voqealarnigina emas, balki ko'rgan-eshitgan voqealari bayonini, ya'ni "har so'zning rostini" va "har ishning bayoni voqiini" yozishni maqsad qilgan.

Bobur asar voqealarini tasvirlash jarayonida o'z davri nasriga, xususan, tarixiy asarlarga xos bo'lgan qator shakliy usul va vositalardan, sun'iy jimjimadorliklardan, bema'ni maqtovlardan qochish lozimligini aytadi, o'z fikrini aniq, rostgo'ylik bilan ifoda qilishga intilish zarurligini uqtiradi. Bu masalaga bir necha bor qayta-qayta murojaat qilishining o'zi esa muallifning bunga qanchalik ahamiyat berganligini ko'rsatadi.

O'z fikrini aniq, rostgo'ylik bilan ifoda etishga qat'iy sodiq qolgan Bobur asarida voqea-hodisalar tafsilotini berar ekan, voqealarga xolislik bilan yondashishni maqsad qiladi. Asarning ayrim qismlarida taqdir o'yinlari oldida o'zining zaifligi va hatto muvaffaqiyatsizlikka uchraganini ham bayon qilishdan qochmaydi:

"Bu fursatta bir qovun kelturub edilar, kesib yegach, g'arib ta'sir qildi. Tamom yig'lab edim". [B., 249]

Ushbu parchadan ko'rinadiki, Hindiston taxtida o'tirgan Bobur ona yurtidan keltirilgan qovun tanovullidan so'ng ruhiyatida kechgan iztiroblar ta'sirida ko'z yosh to'kkanini, ona yurt sog'inchi oldida zaifligini yashirmay, ochiq yozishga o'zida jur'at topa olganligi uning shoirona qalb egasi ekanligidan dalolat beradi..

Bobning ikkinchi fasli **"Tarixiy-memuar asarda lirik kechinmaning hayotiy asosi"** deb nomlanadi. Lirik she'r – inson ichki olamining oniy lahzasi bo'lib, uni o'qigan kishi she'rda tasvirlangan kechinmalar markazida qoladi. Lirikada so'z o'zining siqqligi, har bir tovush, ohangdorlik ritmik unurning ahamiyati, so'zlar ohangdorligi, to'xtamlar xarakteri bilan ajralib turadi. Nutqning har bir unsuri, har bir jilosi jozibadorlik kasb etadi. She'rda u yoki bu ijodkorning "jonli" yoki "tabiiy" kechinmalari ifodalanadi. Tabiiyki, lirik kechinma oddiy insoniy hissiyotlardan o'zida shoirning subyektiv va obyektiv tasavvurlarini aralash holda mujassamlashtirgani bilan farq qiladi. Lirik kechinma she'rning hissiy, "yuqumli" asosi sanaladi. Olamni keng ko'lamda qamrab olish, nomutanosiblikning mos kelishi, mavzu toifalarining yangi va o'zaro aloqalarining

o'rnatilishi, timsolli assotsiativ tafakkurning yorqin va aniqliği – bularning barchasi oxir-oqibat lirik kechinmaning chuqurligi, rivojlanganligi, universalligi bilan uyg'unlashib ketadi. Poetik kechinmalarning rang-barangligi shoir dunyoqarashining muhim ahamiyatini belgilab beradi.

Bobur mumtoz nasr an'anasiga ko'ra, muayyan bir voqeani bayon qilish jarayonida, asosan, uning so'ngida xulosa sifatida nazmga murojaat qiladi, ya'ni o'z qalamiga yoki biror shoir ijodiga mansub biror she'riy parcha namunasini keltiradi. Bunday she'riy parchalar, qaysi janrga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, bayon etilayotgan voqealar tasviriga badiiy bo'yoq berib, ularni o'quvchi tomonidan chuqur anglanilishini ta'minlaydi. Jumladan, uning mashhur g'azallaridan biri sanaladigan "Qoldimu?" radifli g'azali fikrimizni isbotlaydi:

Charxning men ko'rmagan javr-u jafosi qoldimu?

Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu? [B., 147]

Matla'ning birinchi misrasiyoq g'azalning hasbi hol usulida yozilganligidan darak beradi: lirik qahramonning charx – dunyodan shikoyati ritorik so'roq gap, ya'ni yashirin inkor shaklidagi gap tarzida berilishi o'quvchi ruhiyatiga ta'sir qilib, u ham lirik qahramon boshidan o'tkazgan kechinmaga sherik bo'ladi, o'zini unga hamdardday his qiladi. Ikkinchi misradagi lirik kechinma bayoni esa she'rxonga yanada kuchli ta'sir etib, o'zida lirik qahramon kayfiyatini to'la namoyon etadi. Albatta, bunda shoirning so'z tanlashdagi mahoratini alohida ta'kidlash zarur. Baytda qo'llangan tajohuli orif va tanosub kabi badiiy san'atlar she'rning ta'sir doirasini maksimal darajada ko'taradi.

Albatta, beshafqat taqdir o'yinlari yosh shahzoda, shu bilan birga, shoirona ko'ngil sohibi bo'lgan Boburga qattiq ta'sir qiladi. Qalbida jo'sh urgan kechinmalar tug'yoni qog'ozga she'r bo'lib yog'iladi. Bunday haqiqiy hayotiy asosga ega bo'lgan lirik kechinmalar o'quvchi qalbini zabt etadi. G'azalning ikkinchi baytida bu yanada yaqqol ko'zga tashlanadi:

Meni xor etti-yu qildi muddaiyni parvarish,

Dahri dunparvarning o'zga muddaosi qoldimu?!

Bu baytda "muddaiy" so'zi va "dahri dunparvar" so'z birikmasini tushunish o'quvchi uchun nisbatan qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Mumtoz adabiyotga doir lug'atlarda ular quyidagicha ta'riflanadi: muddaiy – da'vogar, raqib; dahri dunparvar – teskari, pastkashlarni tarbiyalovchi dunyo. Bayt quyidagicha talqin qilinadi: "Dunyo meni xor qilib, men bilan dovlashgan da'vogar raqibimni yuksaltirdi, pastkashlarni tarbiyalovchi dunyoning boshqa maqsadi ham qoldimi?" Baytda ifodani kuchaytirish maqsadida tazod (xor etmoq – parvarish qilmoq), tanosub (muddaiy, dahri dunparvar, muddao) san'atlaridan unumli foydalanilgan.

Bobur o'z kechinmalarini tasvirlashda ichki madaniyatga qattiq rioya qiladi. Buning isboti "Boburnoma"da berilgan she'riy parchalardan istagancha topish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Boburnoma"da iqtibos keltirilgan she'riy parchalarning g'oyaviy-badiiy vazifalari** deb nomlanadi. Bob uch fasldan iborat bo'lib, uning birinchi faslida **"Asar kompozitsiyasida liro-epik asos uyg'unligi"** masalasi o'rganilgan. Ma'lumki, muayyan asarning lirik-epik asosi sujet va axloqiy tarbiya, epik va lirik pafos o'rtasidagi yaqin bog'liqlik asosida

yaratilgan. Muallif o'z fikrlarini qisqa jumlar bilan ifodalar ekan, ularni xulosalash, kitobxonga yanada yaqqolroq tushunarli va ta'sirchan bo'lishi uchun tasvir bayoniga mos keladigan she'riy parchalardan unumli foydalanadi. Natijada asar kompozitsiyasi o'ziga xos, betakror xususiyatga ega bo'ladi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asariga tadqiqotchilar tomonidan muallifning jang kitobi, tarjimayi holi, muhim bir tarix kitobi, eski o'zbek tili va adabiyotining qimmatli yodnomasi, mamlakatlarning tarixiy jo'g'rofiyasi haqida foydali manba, monumental adabiy-tarixiy yodgorlik, Boburning murakkab sarguzashtlarini ma'lum adabiy-estetik tamoyillar asosida umumlashtiruvchi, ulardan muhimlarini ajratib, individuallashtirib, badiiylik talablari asosida tasvirlovchi go'zal obida, "tarixiy-prozaik asar", ensiklopedik asar⁶ kabi turli xil ta'riflar berilgan. "Boburnoma"da Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud kabi o'nlab taxt egalari, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san'at arboblari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

"Boburnoma" asari o'zida bir qator adabiy janrlarni: safarnoma, memuarlar, maktublar, aforistika, faxriya, g'azal, ruboiy, qit'a va boshqalarni qamrab oladi. Ishda yuqorida keltirilgan mazkur janrlar va ularga xos xususiyatlar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi. Shuni alohida qayd etish kerakki, muallif "Boburnoma"da aksariyat hollarda o'z g'azallarining faqat matla'sini keltirish bilan cheklansa-da, bu asar badiiyligiga aks ta'sir qilmay, balki uning qiymatini yanada oshirgan.

"Boburnoma" asarida keltirilgan she'riy parchalarning umumiy miqdori 94 tani tashkil qiladi. Tadqiqotchi I.Adizovaning qayd qilishicha, asarda keltirilgan she'riy parchalar 78 ta sahifada uchraydi va jami 324 misrani tashkil etadi. Ular janr nuqtayi nazaridan rang-barang: g'azal, ruboiy, qit'a, ta'rix, masnaviy, fard kabi janrlar tashkil qiladi. "Boburnoma"da o'zbek va fors-tojik tillarida yaratilgan she'riy parchalar namunalar keltirilgan.

Biz tadqiqotimizda asarda keltirilgan she'riy parchalarni janr nuqtayi nazaridan tahlil va talqin qilishga harakat qildik.

"Boburnoma" asaridagi she'riy parchalar o'z janriy xususiyatiga ko'ra, bir qancha adabiy janrlarni o'z ichiga oladi. Muallif u yoki bu voqeani tasvirlash orqali unga mos turli adabiy janrlardan ustalik bilan foydalanadi. Bu holat esa o'z navbatida asarning badiiy qiymatini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Bobning **"Lirik she'rlarning mavzu va g'oyaviy talqini"** nomli ikkinchi faslida "Boburnoma"dagi she'rlarning mavzu va g'oyaviy jihatlari o'rganilgan.

⁶ Хайитметов А. Навоий ва Бобур//«Шарк юлдузи», 1984. – Б. 2; Азимджанова А. Государство Бабур в Кабуле и в Индии. – М.: 1977; Азимжоннова С. Бобурнинг хинд девони. – Т.: «Фан». 1966; Ғайбуллоҳ Ас-Салом, Неъматтуллоҳ Отажон. Жаҳонгашта «Бобурнома». – Тошкент: «Халқ мероси» нашриёти. 1996; Ҳ. Болтабоев. Бобурийлар салтанати ва унинг давлатчилик тарихидаги ўрни (хаммуаллиф М.Маҳмудов)/С.М.Берк. Акбаршоҳ – бобурийларнинг энг буюғи. – Тошкент: «MUMTOZ SO'Z», 2009; Валихўжаев Б. Заҳриддин Муҳаммад Бобир//Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: 1978; Машрабов З. Бобур ва бобурийлар мероси: – Т.: «Фан», 2008; Отажонов Н. «Бобурнома» жаҳон адабий жараёнида. Қиёсий-типологияк таҳлил//Филол. фанлари доғтори АНСС. – Т.: 1994; Султон Х. Бобурийнома: Маърифий роман. – Т.: «Шарқ». 1997.

Atoqli adabiyotshunos olim Abdurauf Fitratning ta'rificha, "Ijodning birinchi natijasi asarning mavzuyi ... bo'ladir", ya'ni "adabiyotning mavzuyi butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki-tashqi dunyosida sezib onlag'anlaridir. Bir tomchi suvdan tengizgacha, bir uchqundan buyuk bir yong'ingacha, kichkina bir yaproqdan ulug' o'rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib-yozg'uchi uchun mavzu bo'larlik narsalardir"⁷.

Badiiy asar mavzusi va g'oyasi bir-birini taqozo etuvchi unsurlar bo'lib, o'zaro muhim bog'lanishda bo'ladi. Bu haqda atoqli adabiyotshunos olim A.Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: "... *adib-yozg'uchi o'z asarining tilagiga (g'oyasiga) ko'ra mavzu tollaydir (tanlaydi); qanday bir tilakni ko'zda tutib, qanday bir fikr bermakchi bo'lib asar yozar esa, shunga kuchlirak boylangan bir mavzuni oladir*"⁸.

Ko'rinadiki, har qanday asarning dunyoga kelishida, avvalo, g'oya, ya'ni yozuvchi yoki shoirning nimanidir aytish istagi, keyin ana shu g'oyani yuzaga chiqarish uchun mavzu muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotshunos olimlar tomonidan tarixiy-yodnoma asar sifatida baholangan "Boburnoma" mavzu jihatidan xilma-xil fanlar (tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, jo'g'rofiya, nabotot, hayvonot, etnografiya, harbiy usul va boshqalar) borasidagi ayrim ilmiy xulosalarni qamrab olgan bo'lsa ham, ularning barchasini "*Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq*" degan asosiy g'oya birlashtirib turadi.

Muallif ana shu g'oyani to'laligicha ochib berish uchun qaysi mavzudagi voqeani bayon qilmasin, unga mos keladigan Sharqning atoqli shoirlari va o'z qalamiga mansub bo'lgan she'riy parchalarni xulosa sifatida keltiradi. Jumladan, asarning "To'qqiz yuz uchinchi (1497-1498) yil voqialari" bobida Samarqandda hukmronlik qilgan Mirzo Ulug'bek va uning o'g'li Abdullatif munosabatlarini bayon qilar ekan, quyidagilarni yozadi:

"Bu besh kunluk o'tar dunyo uchun andoq donishmand va qari otasini shahid qildi. Ulug'bek mirzoning favtining tarixi tavre voqi' bo'lubtur. Nazm:

*Ulug'bek bahri ulumu xirad,
Ki dunyovu dinro az o' bud pusht,
Zi Abbos shahdi shahodat chashid,
Shudash harfi tarix "Abbos kusht".*

Tarjimasi: *Ulug'bekkim, ilmu aql dengizi edi,
U dunyoyu dinning azim tayanchi edi.
U Abbosdan shahidlikning bolini totti,
Vafoti tarixi ham "Abbos o'ldirdi" bo'ldi.*

Agarchi o'zi ham besh-olti oy besh saltanat qilmadi, bu bayt mashhurdurkim:

*Padarkush podshohiro nashoyad,
Agar shoyad ba shash mohash napoyad.*

Tarjimasi: *Otasin qotili podshoh bo'lolmas,
Gar bo'lsa ham, olti oyga yetolmas.*

⁷Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 14-15.

⁸⁸Фитрат. Кўрсатилган асар. – Б. 15.

Aning tarixi ham tavra voqi' bo'lubtur:

*Abdullatif xisravi Jamshid far ki bud,
Dar silki bandagonash Faridun-u Zarduhusht.
Bobo Husayn kusht shabi jum'aash ba tir,
Tarixash in navis ki "Bobo Husayn kusht". [B., 62]*

Tarjimasi: *Abdullatif mirzo edi Jamshiddayin shoh,
Bandalari safida Faridun, Zardusht turdi.
Bobo Husayn o'ldirdi uni juma kuni kech,
Ta'rixin shunday yozgin: "Bobo Husayn o'ldirdi". [BT, 58]*

Ushbu parchada temuriylarga oid muhim tarixiy ma'lumot – Samarqand taxtining egasi Mirzo Ulug'bek o'g'li Abdullatif mirzo tomonidan qatl ettirilishi, sal keyinroq Abdullatif mirzoning ham mulozimlari tomonidan o'ldirilishi tafsilotlari bayon qilingan.

"Boburnoma" asaridagi she'rlar va she'riy parchalar mavzu jihatidan xilma-xil sanaladi. Chunonchi mutaxassislar tomonidan "tarixiy yodnoma" sifatida baholangan ushbu asarda Bobur o'z hayotida ro'y bergan turli voqea-hodisalar bayoni tasvirida she'riy parchalardan xulosa o'rnida foydalangan.

Asarda keltirilgan she'r va she'riy parchalarning aksariyati falsafiy-axloqiy mavzuda bo'lib, o'zida turli axloqiy g'oyalarni aks ettiradi:

*Agar sad sol moni var yake ro'z
Biboyad raft az in kohi dilaftro'z. [B., 99]*

Mazmuni: *Agar yuz yil va gar bir kun umr bor,
Bu dilcash qasrdan ketarsan nochor. [BT, 98]*

Bu baytda umrning o'tkinchiligi, muvaqqat ekanligi, ya'ni odam yuz yil yoki bir kun yashasa ham, baribir, bu dunyodan o'tishi muqarrarliligi g'oyasi o'z isbotini topgan.

Bobning **"She'riy parchalardagi folklorizm an'analari"** nomli uchinchi faslida Boburning folklorizmdan, ayniqsa, xalq maqollaridan va ular darajasiga tenglashtirilgan Sharq mutafakkirlarining hikmatli so'zlaridan o'z o'rnida foydalanish mahorati tadqiq etilgan. Bobur "Boburnoma" asarida nafaqat o'zbek xalqining, balki fors-tojik, afg'on va hind xalqlarining urf-odatlarini, marosimlari, maqol va hikmatli so'zlari, rivoyatlari, umuman olganda, ularning folklorizmlari haqida ko'plab muhim ma'lumotlarni keltirgan.

"Boburnoma"da muallif tadbirlilik va epchillik, ishonch va umidsizlik, botirlik va qo'rqqoqlik, hushyorlik va laqmalik mazmunidagi o'zbek va fors-tojik maqollarini voqea bayoniga mos tarzda ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz.

Boburning folklorizm unsurlaridan, ya'ni xalq maqollaridan o'z o'rnida foydalanish mahoratiga asardan juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, Xo'jand hokimi Qanbar Alining do'stlik, kelishuv haqidagi soxta va'dalarga chuv tushib, Axsiga kelgani va Ahmad Tanbalning uni asir olib, viloyati ustiga lashkar tortishi bilan bog'liq voqealarni bayon qilar ekan, ularga xulosa sifatida quyidagi xalq maqolini keltiradi:

"Inonmag'il do'stungg'a, somon tiqar po'stungg'a".

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi janrlari orasida eng kam o'zgarishga uchraydiganlaridan biri maqol sanaladi. Bobur asarida keltirgan yuqoridagi maqol ham hozirgi kunda deyarli o'zgarmasdan qo'llanadi:

"Ishonmagil do'stunga, somon tiqar po'stunga".

Muallif ba'zi o'rinlarda maqol va uning zamiridagi ma'noni – ta'birni voqea bayoni yoki shaxs nutqi ichiga singdirib yuboradi. Masalan, Raana Sangaaga qarshi jang qilish arafasidagi voqeani bayon qilib, o'zining jangchilarga so'zlagan quyidagi nutqini keltiradi:

"Har kimki hayot majlisig'a kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichgusidur va har kishikim, tiriklik manzilig'a kelibtur, oxir dunyo g'amxonasidin kechgusidur. Yomon ot bila tirilgandin yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq". [B., 223]

Bobur o'z asarida hayotiy, ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirish orqali ayrim tarixiy shaxslarning qiyofasini ochishda xalq maqollari va hikmatli so'zlardan keng foydalanadi. Bu holat fikr va xulosalarning qimmatini belgilab beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Asarda lirik kechinma tabiati va obrazlilik"** deb nomlanib, uning **"Poetik obraz va timsollar talqini"** nomli birinchi faslida asarda berilgan lirik she'rlarning obraz va timsollari tahlil etilgan. "Boburnoma"da keltirilgan she'riy parchalarda matnga mos ravishda turli obrazlar tasvirlanadi, aniqrog'i, she'riy parchalar tasvirlanayotgan obrazni yanada boyitadi, ular haqida yanada aniq ma'lumotlar beradi. Jumladan, asarning "Sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi (1494) yil voqialari" bobida buvisi Esan Davlatbegimning qizlari haqida gapirar ekan, uning uchinchi qizi Xo'b Nigorxonimning o'g'li Haydar mirzoga alohida ta'rif berib o'tadi: *"... Otasini o'zbak o'lturgandin so'ng kelib, mening mulozimtimda uch-to'rt yil turub, so'ngra ijozat tilab Koshg'arg'a xon qoshig'a bordi.*

*Boz gardad ba asli xud hama chiz,
Zarri sofi-yu, nuqra-vu ariz.*

Tarjimasi: *Hammasi asliga qaytar muqarrar,
Xoh kumush, qo'rg'oshin, xohi toza zar.*

Bu tarixda, deydurlarkim, toyib bo'lub, yaxshi tariqa paydo qilibtur. Xat va tasvir va o'q va paykon va zihgir har nimaga iligi chaspondur. Tab'i nazmi ham bordur. Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yomon emas. [B., 39-40]

Ko'rinadiki, Bobur Haydar mirzo siymosini tasvirlashda keltirgan she'riy parcha matnga to'la muvofiq kelib, uni badiiy jihatdan to'ldiradi, yanada ta'sirchanligini oshirib, o'quvchi xotirasida yaxshi o'rnashib qolishiga zamin yaratadi. Forsiy she'riy parchaning *"Olmaning tagiga olma tushadi"*, – degan xalq maqoli bilan ma'no jihatdan o'xshashligi va matnda Haydar mirzoning ichishni tashlab, yaxshi yo'lga kirishi, turli sohada yutuqlarga erishishining tasviri bir-birini to'ldirib, Haydar mirzo siymosi yanada yorqinroq gavdalanadi. Bu o'rinda detal obraz – Haydar mirzoning tasviridan badiiy reallikning ikkinchi qatlami – ichki yoki tashqi harakatdan tarkib topuvchi voqea-hodisalar obrazi – Haydar mirzoning *ichishni tashlab, yaxshi yo'lga kirishi, xat va rasm, o'q va paykon hamda zihgirga qo'li kelib qolishi, she'riy iste'dodi borligi, maktub bitish uslubining ham yomon*

emasligi aytib o‘tiladi. Shu harakat ortida turib uni yurgizayotgan “xarakter va sharoit” – forsiy she’riy parcha – uchinchi qatlamni tashkil qiladi va oldingilarini birlashtirgan holda “dunyo va taqdir” obrazi, ya’ni Haydar mirzoning to‘laqonli obrazini yuzaga keltiradi.

Asarda keltirilgan she’riy parchalarning aksariyatida oshiq timsoli gavdalanadi. She’riy parchalarning ma’lum bir qismi asarda tasviri berilayotgan muayyan bir shaxs qalamiga mansub bo‘lib, ularning shoirlik iqtidorini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

“Boburnoma”da keltirilgan she’riy parchalarning aksariyati falsafiy va axloqiy-didaktik mavzuda bo‘lganligi sababli ularda faylasuf timsoli ham asosiy o‘rinni egallaydi. Muallif o‘z hayotida, shuningdek, asar personajlari hayotida ro‘y bergan u yoki bu voqea-hodisaga falsafiy va axloqiy-didaktik nuqtayi nazardan baho beradi, shu jihatlardan yondashadi. Muayyan bir voqea bayonidan so‘ng o‘z davrida mashhur bo‘lgan yoki o‘z ijodiga mansub bo‘lgan falsafiy mavzudagi axloqiy-didaktik baytni keltiradi.

